

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 6, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST
VOLUME 6, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2023

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Раҳбар Ҳамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобоҷонова Дијором Бобоҷонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзРФА Тарих институти

Аззамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзРФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қызлар давлат педагогика
университети

Ульяева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ким - технология институти

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қарши мұхандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боҳодир Жӯраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қарши давлат университети

Махкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент аҳборот технологиялари
университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давлаталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмайлова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Дөгистон мустақил университети

Иноятова Диларрам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети

Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далат педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сайдмухтар Абраров АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ ЖАҲОН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ....	4
2. Абдурахмон Абдухалимов ФАРГОНА ВИЛОЯТИДА ТИББИЙ МУАССАСАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ЙЎЛГА ҚЎЙИЛИШИ.....	10
3. Феруза Амонова САНОАТ МОЛИЯСИ ЁҲУД ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТ.....	18
4. O‘g‘iloy Bozorova O‘ZBEKISTON SSRDA LOTIN ALIFBOSIGA O‘TISHNING QONUNIY ASOSLARI VA MAORIF XODIMLARINING ISHTIROKI.....	27
5. Faxriddin Yormatov YANGI O‘ZBEKISTONDA NURONIYLARGA HAR TOMONLAMA HURMAT VA EHTIROM KO‘RSATISHDAGI TIZIMLI O‘ZGARISHLAR.....	35
6. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov MUSTAQILLIK YILLARIDA NURONIYLARNI IJTIMOIY HIMoyalash MASALALARI: MUAMMOLAR VA NATIJALAR.....	44
7. Farhod Maqsudov TOG‘LI USTRUSHONA KO‘CHMANCHILARI O‘RNASHUV EKOLOGIYASI HAQIDA.....	53
8. Ulmas Muminov MAHALLADA MA’NAVIY TAHDIDLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA TA’SIRI.....	58
9. Maftuna Rajabova SHARQ VA G‘ARB MUTAFAKKIRLARINING ILMIY QARASHLARIDA TOLERANTLIK MASALASI.....	63
10. Икромжон Умаров ЎЗБЕК ҚАТАҒОН УРУФИННИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШ ТАРИХИ.....	70
11. Бахтиёр Халмуратов ЎЗБЕК ХАЛҚИННИНГ СУВ ИНШООТЛАРИ ВА УНИНГ МУХОФАЗАСИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ (тариҳий-этнографик таҳлил).....	83
12. Nafisa Hayotova 1920-1990 YILLARDA BUXORO SHAHARSOZLIGI: TARAQQIYOT VA TANAZZUL.....	91



ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Nafisa Hayotova,
Buxoro davlat universiteti
Yurisprudensiya va
ijtimoiy-siyosiy fanlar
kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD
email:khayotova.nafisa@bk.ru

1920-1990 YILLARDA BUXORO SHAHARSOZLIGI: TARAQQIYOT VA TANAZZUL

For citation: Nafisa Hayatova. URBAN DEVELOPING IN BUKHARA CITY IN 1920-1990s: PROGRESS AND DECLINE. Look to the past. 2023, vol. 6, issue 10, pp.91-96



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.8419517>

ANNOTATSIYA

Maqola Buxoro shahrida sovet davrida amalga oshirilgan shaharsozlik an'analarining rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning shakllanishini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada sovet davrida shahar qurilishi jarayonidagi xatoliklar, jumladan tabiiy omillarga e’tibor berilmagani, shaharni ko‘kalamzorlashtirishdagi kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada shaharni kengaytirish borasidagi harakatlar oqibatida tarixiy obidalarga zarar yetkazilishi natijalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: infratuzilma, kadrlar qo‘nimsizligi, “sotsialistik majburiyat”, yashil zona, ilmiy-restavratsiya, kommunikatsiya, logistika.

Нафиса Хаятова,
Бухарский государственный университет,
старший преподаватель кафедры
Юриспруденция и социально-политические науки, PhD
email: khayotova.nafisa@bk.ru

ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВО В БУХАРЕ В 1920-1990 гг.: РАЗВИТИЕ И УПАДОК

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена освещению развития градостроительных традиций и формированию социально-экономической инфраструктуры города Бухары в советский период. В статье показаны ошибки в процессе строительства города в советский период, в том числе пренебрежение природными факторами, недостатки в озеленении города. Также в статье показаны последствия ущерба историческим памятникам, вызванного расширением города.

Ключевые слова: инфраструктура, текучесть, «социалистические обязательства», зеленая зона, научно-реставрационная, связь, логистика.

Nafisa Hayatova,
 Bukhara State University,
 Senior teacher of the department of Jurisprudence and
 socio-political sciences, Ph.D
 email: khayotova.nafisa@bk.ru

URBAN DEVELOPING IN BUKHARA CITY IN 1920-1990s: PROGRESS AND DECLINE

ABSTRACT

The article is dedicated to highlighting the development of urban planning traditions and the formation of socio-economic infrastructure in the city of Bukhara during the Soviet period. The article shows the mistakes in the process of city construction during the Soviet period, including the neglect of natural factors, the shortcomings in the greening of the city. The article also shows the consequences of damage to historical monuments caused by the expansion of the city.

Index Terms: infrastructure, dissatisfaction, "socialist obligation", green zone, scientific-renovationst, communication, logistics.

1. Dolzarbliji:

Qadimdan yirik tijorat markazlaridan bo'lgan Buxoroning ijtimoiy-madaniy hayoti sovet hukumati davrida ma'lum darajada o'ziga xos qolip va andozalarga solindi. 1920 yil cyentyabrdagi qizil armiya tomonidan Buxoro shahri egallanib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligidan so'ng F.Xo'jayev rahbarligidagi hukumat vayron bo'lgan shaharni qayta tiklashga kirishadi. Dastlab Buxoro ko'chalariga tosh yotqizish, transport yo'llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlarni amalga oshiradi [1:78-bet].

Shahar ko'chalarini yoritish va aholini elektr chiroqlari bilan ta'minlash maqsadida Buxoro shahrida 1922 yilda elektr stansiyasi qurilishi boshlangan. Kerakli jihozlar Moskva, Xarkov, Tbilisidan olib kelinib, loyiha Gegeneyshvili rahbarlik qilgan [2:379-bet]. 1923 yil kuzida Buxoro shahridagi Registon maydonida elektr stansiyasi o'rnatilgan va shu yilning 12 dekabridan aholi elektr chiroqlaridan foydalana boshlagan [1:79-bet].

BXSR hukumati davrida ijtimoiy infratuzilmaga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy usuldagiga ta'lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilgan. Jumdadon, Buxoro shahrida 1920-1921 yillarda 17 ta boshlang'ich maktablar, 2 ta qizlar maktabi, 3 ta yetimxona, 1 ta hunar maktabi, 1 ta ustaxona, 1 ta musiqa maktabi, 1 ta siyosiy maktab faoliyati yo'liga qo'yilgan [1:95-bet].

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Maqolani yoritish jarayonida tavsifiylik, tarixiylik, tarixiy-qiyosiy tahlil ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Buxoro hukumati teatr, kutubxona, muzey, klub, choyxona kabi madaniy muassasalarini qurilish ishlarini olib borgan. Jumladan, 1921 yilda "Yetimxon" teatr binosi qurilib, Registon maydonida yozgi teatr tomoshalari tashkil qilingan [3], o'sha yili Amir Olimxon madrasasida Abu Ali ibn Sino nomli kutubxona o'z faoliyatini boshlaydi [1:102-bet], 1922 yilning 8 noyabrida Sitorai Moxi Xossada muzey ochiladi va unga "Qori Yo'ldosh muzaxonasi" nomi berilgan. 1923 yilda radio stansiyasi qurilib, radioeshittirishlar olib borilgan. Aholini madaniy hayotga kengroq tortish uchun 1923-1924 yillarda 5 ta klub va 10 ta qizil choyxona qurilib ishga tushirilgan [4:25-bet]. Shaharda ijtimoiy infratuzilmalarning ko'payishi shahar qiyofasini o'zgartirib borsada, amalga oshirilayotgan "islohotlar" sovet hukumati g'oyalaring aholi o'rtasida kengroq yoyilishiga qaratilgan edi.

Buxoro Respublikasi tashkil etilgan kunidan boshlab, sog'liqni saqlash tizimi eng muhim soha sifatida qaraldi va mavjud muammolarni bartataf etishga qaratilgan islohotlar olib borildi. 1920 yil 31 oktyabrdagi BXSR hukumati huzurida Sog'likni Saqlash nozirligi tashkil etilgan. Nozirlilikning "Dorishunoslik", "Sanitar-epidemologik", "Davolanuvchi" bo'limlari bo'lib, birinchi nozir etib, Germaniyada o'z malakasini oshirib kelgan Abdulahad Burhonov tayinlangan [5:107-bet]. Nozirlilik tashabbusi bilan BXSR poytaxtidagi 100 o'rinnli shahar shifoxonasini 200 o'rinnli qilib kengaytirish ishlari olib borilgan. Shifoxonaning old qismiga 3 ta yangi bino qurilgan va ta'mirga muhtoj tibbiy

muassasalarda ta'mirlash ishlari olib borilgan. Bu tadbirlar uchun davlat tomonidan 200 ming oltin ajratilgan [5:110-bet]. Tibbiy jihozlar Berlin va Moskva shaharlaridan keltirilib, shifoxonada rengen qiluvchi, ko'z kasalliklarini davolovchi va boshqa yangi tibbiy xonalar tashkil qilingan. 1924 yilga kelib BXSRda 5 ta kasalxona, 2 ta ambulatoriya va 8 ta feldsherlik punkti faoliyat ko'rsatgan [6:228-bet].

3. Tadqiqot natijalari:

BXSR hukumati ishlab chiqarish korxonalari va savdo inshootlari barpo etish hamda faoliyatini tashkil etishga alohida e'tibor qaratdi. 1920 yili Buxoro shahrida Markaziy xalq banki, uning viloyatlar va shaharlardagi sho'balari, 1922 yili elektrostansiya, gugurt va sovun zavodlari [7:149-150-bet], 1923 yili Buxoro tovar-fond birjasi tashkil qilingan [8:77-bet]. 1923 yilda Buxoroda 7 ta paxtani qayta ishslash, 3 ta yog' ishlab chiqarish, 4 ta teriga ishlov beruvchi korxonalar faoliyat ko'rsatgan [9:82-bet].

1933 yilda shahar markazida 50 hektar maydonni egallagan S. Kirov nomidagi madaniyat va istirohat bog'i tashkil etiladi. Unda 1 ta kinoteatr, ko'rgazmalar maydonchasi, ko'l-hovuz, raqs tushish maydoni, shaxmat va billiard zali mavjud bo'lgan [10:80-81-bet].

Shahar infratuzilmasi tarkibidagi moddiy fondlar orasida turar joy qurilishi alohida ahamiyat kasb etgan. Xususan, ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda shahar xo'jaligining barcha sohalari qatorida uy-joy qurilishi va mavjud binolarni ta'mirlashga e'tibor qaratilgan. 1948 yilda turar joylarni ta'mirlash rejasi Buxoroda 69 % bajarilgan bo'lib [11], 1956 yilda Buxoro shahrida 33 ta uy-joy, 75 kishiga mo'ljallangan mehmonxona, hammom, maktab kabi binolar qurib topshirilgan [12:358-bet].

Sovet hukumati tomonidan 1957 yilda "SSSRda turar-joy qurilishini rivojlantirish to'g'risida"gi Qaror qabul qilingan va 10-12 yil ichida uy-joy muammosini butunlay bartaraf etish belgilangan. 1958 yilda uy-joy fondi 368 ming km kvadratni tashkil etgan bo'lsa, 1967 yilga kelib 510 ming km kvadratga yetgan. Aholini turar joylar bilan to'liq ta'minlash zarurligi sababli respublikaning boshqa shaharlaridagi singari Buxoroda ham uy-joy qurish kooperativlari tashkil etilgan.

Sovet davrida amalga oshirilgan tadbirlardan biri - ishchilarini tekin uy-joy bilan ta'minlash bo'lib, bu ishchilar "qo'nimsizligi"ning oldini olish, ularni korxonaga "bog'lash", ishlab chiqarishni ishchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutgan. Ishdan o'z ixtiyori bilan bo'shagan yoki bo'shatilgan, sudlanganlardan uy-joylari qaytarib olingan. Ishchi-xizmatchilar uchun turar joylarni korxonalarining o'zi qurib topshirishi lozim bo'lgan. Bundan tashqari, uy-joylarni zavod va fabrika ishchilar kuchi bilan qurish amaliyoti keng qo'llanilgan [13].

Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda shaharlarda sog'likni saqlash tizimi nochor ahvolda bo'lib, tibbiy muassasalarga e'tibor mablag'ning yetishmovchiligi sababli ayanchli ahvolda bo'lgan. 1950-yillarga kelib ahvol sezilarli darajada yaxshilangan. Buxoro shahrida 1947 yilda tibbiy muassasalarni ta'mirlash va jihozlash uchun sohaga 1 mln rubl mablag' sarflangan bo'lsa, 1950-yilga kelib 7 mln rubl mablag' ajratilgan. 1958 yilda esa 1950 yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar ko'p mablag' sog'likni saqlash ishlari uchun sarf qilingan. 1946 yilda Buxoroda 30 ta tibbiyot maskanlari hisobga olingan bo'lsa, 1965 yilga kelib ularning soni 50 taga yetgan [12:367-bet].

XX asr 50-yillarida Buxoro amirining qarorgohi Sitorai Mohi Xossa yonida, 100 kishiga mo'ljallangan sanatoriya qurilib, unda har yili yuzlab aholi dam olish imkoniyatiga ega bo'lgan [14:405-bet]. Shaharda ijtimoiy ob'yektlar barpo etilishi davom etib, 1959 yilda Buxoroda madaniyat xalq universiteti tashkil etilgan [8:81-bet]. 1960-yillarning oxirida shaharda 7 ta kutubxona, 9 ta kinoteatr faoliyat ko'rsatgan. 1966 yilda kinoteatrlar xizmatidan 1 million 759 ming kishi foydalangan.

Dunyo tajribasida yirik shaharlarni boshqarishda shaharni tumanlarga bo'lib idora etish usullari mavjud bo'lib, bu jarayon shaharni tezroq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralgan. Sovet davrida shaharlarni mazkur usulda boshqarish amaliyoti ham joriy qilingan edi.

Buxoro viloyati Xalq Sovet deputatlarining 1978 yil 26 may oyida “Buxoro shahrida tumanlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori bilan shaharda To‘qimachilik va Fayzulla Xo‘jayev tumanlari tashkil etildi [15]. Ular ma’muriy jihatdan Buxoro shahar hokimligiga bo‘ysungan.

Har ikkala tumanda faoliyat ko‘rsatgan sanoat korxonalarini reja asosida mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. F. Xo‘jayev tumanida 17 ta sanoat korxonasi faoliyat ko‘rsatib, jumladan, Yog‘-moy ekstrakt zavodi, paxta tozalash zavodi, ta‘mirlash-mexanika zavodi, trikotaj-ipak o‘rash fabrikasi, non kombinati, poyafzal fabrikasi, tikuv ishlab chiqarish birlashmasi, kabilar ishlab turgan. Bu korxonalarda 44 turdag‘i mahsulotlar davlat Sifat belgisi bilan ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 145 turdag‘i mahsulotlar birinchi toifadagi Sifat belgisi bilan ishlab chiqarilgan. Birgina “Zardo‘zlik buyumlari” fabrikasida davlat Sifat belgisi asosida 11 turdag‘i mahsulot ishlab chiqarilgan [16].

To‘qimachilik tumanida 18 ta sanoat korxonasi bo‘lib, ulardan kengaytirilgan loy zavod (keramzitoviy zavod), pivo zavodi, Buxoro ip-gazlama to‘qimachilik kombinati, ta‘mirlash-mexanika zavodi, un kombinati va boshqalar. 1980 yillar ma’lumotlariga qaraganda, har qaysi korxona o‘ziga belgilangan “sosialistik majburiyat”ni bajarishga harakat qilishiga qaramay, tumandagi mavjud 18 ta korxonalardan faqat 6 tasi ishlab chiqarish rejasini bajargan xolos. 1980 yillarga kelib ittifoqning ko‘pgina hududlarida iqtisodiy inqirozning boshlanib, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining jahon standartlariga javob bermaganligi, korxonalarda 40-50 yillardan buyon foydalanayotgan texnika jihozlari allaqachon o‘z ish muddatini o‘tab bo‘lganligi ishlab chiqarish sifatiga salbiy ta’sir etib kelayotgan edi.

Shahar tumanlarini takomillashtirish, obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilash borasida 1970 yillar so‘ngida 1 mln. 741 ming so‘m sarflangan. Jumladan, yo‘llar qoplamasini ta‘mirlash, ko‘chalarni yoritish, aholi dam olish maskanlarini obodonlashtirish ishlari olib borilgan [17]. Lekin ushbu jarayonlar shaharning taraqqiyotiga ta’sir etmadni, balki iqtisodiy beqarorlik, rejalarini yil sayin bajarilmay qolishi, ikki tuman o‘rtasida nosog‘lom muhit, tushkinlik holatlari kuzatildi. Natijada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrdagi qaroriga muvofiq Buxoro shahridagi Fayzulla Xo‘jayev va To‘qimachi tumanlari 2004 yil 1 yanvaridan tugatildi [18].

Sovet davrida shahar qurilishi jarayonida juda ko‘p xatoliklarga ham yo‘l qo‘yilgan. Birinchidan, shahar qurilishida tabiiy omillarga e’tibor berilmay, xususan turar joy va ijtimoiy binolarni bunyod etishda shamol yo‘nalishi hisobga olinmagan. Bu hol mazkur binolarda havo almashuvini qiyinlashtirgan. Ikkinchidan shaharni ko‘kalamzorlashtirishda, ya’ni shahar atrofi “yashil zonasasi”ni barpo etishda yetarlicha e’tibor berilmagan. Vaholanki, cho‘l zonasida joylashgan shaharni turli issiq shamollardan va tuzli chang bo‘ronlardan, yaratilgan yashil zona himoya qiladi. Aytish joizki, shamollar ayrim shaharlar havosini tozalashda faol ishtirop etsa, ayrimlarini ifloslashda o‘z “ulushini” qo‘sadi [19:112-bet]. Tog‘li hududlar qatori tekisliklarda joylashgan shaharlar havosini almashinuvida ham mahalliy shamollarning o‘rni beqiyos. Ayniqsa, bu holat Buxoro hududida muhim ahamiyatga ega. Viloyatdagi shamollarning aksariyati shimol tomonidan esadi. Shuning uchun shaharsozlikda, aholi turar joy, korxona va turli muassasalar qurilishida bunday tabiiy qonuniyatga rioya qilinishi kerak. Uchinchidan, sovet davrida ko‘pgina qadimgi binolarni yo‘q qilish amaliyoti qo‘llanildi. 1920-1960 yillar shahar qadimiy mudofaa devorining ichkari qismi bo‘ylab joylashgan aksariyat eski hovlilar, guzarlar, me’moriy obidalar devor bilan birga buzib tashlangan. Ark qal’asi oldidagi Registon maydoni va unga yaqin yerda joylashgan XVII asrga oid obidalari, jumladan, kattaligi jihatdan Masjidi Kalondan keyingi o‘rinda turgan Poyandabiy otaliq masjidi, shuningdek Dor ush-shifo, Bozori go‘sford, Xo‘ja Nihol, Shodimbiy madrasalari, Xo‘ja Sa’d Jo‘yboriy tarafidan XVI asrda qurilgan Kalobod madrasasi butunlay buzib yuborilgan [20:11-bet]. Registonning janubiy-g‘arbiy yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan XVI asr yodgorliklari bo‘lmish to‘rtinchini va beshinchi savdo toqlari - Toqi Ordfurushon va Toqi Tirgaron ham qulatilgan. O‘rnida yangi imoratlar, jumladan, tarixga ixtisoslashgan hozirgi 6-maktab va viloyat ichki ishlari boshqarmasi binolari qad rostlagan. Ark qal’asi ichidagi binolarning 80 foizi buzilgan bo‘lib, bir qismiga 1920 yil qizil armiya hujumlari paytida shikast yetgan bo‘lsa, qolganlari bosqichma-bosqich buzib tashlangan. Bugungi kunda ark binosining faqat 20 foizi yetib kelgan, xolos [21]. Shahar mudofaa devorining katta qismi va undagi 11 darvozadan 9 tasi olib tashlangan. Qarshi darvozasi yaqinidagi Shayx

Rangrez guzaridan to Kokilai Kalon guzarigacha bo‘lgan hudud buzilib, o‘rnida bolalar kasalxonasi, grenaj zavodi, avtovokzal va boshqa binolar qurildi. Qarshi, Mozori sharif (Naqshband), Samarqand darvozalari yo‘nalishidagi hududda qad ko‘tarib turgan Qozi Nuriddin, Imom Qozixon, Qarokamol, Mir Toxuri guzarlari tarixiy topografiyasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Samarqand va Hazrati Imom darvozalari oralig‘idagi tarixiy hududda esa, taksomotor parki, mebel magazini, o‘qituvchilar malakasini oshirish instituti binolari, qisman aholi yangi turar joylari barpo etilgan. Hazrati Imom va O‘g‘lon darvozalari oralig‘ida Xossa Po‘lod, Nazarcha, Kofar-rabot, Ho‘ja Qurbon, Qozi Mir Hoshim, Askarbiy nomli tarixiy guzarlar, shuningdek, hovuz, xonakoh, O‘g‘lon ota mozori joylashgan bo‘lib, ularning barchasi buzib tashlangan, o‘rnida Buxoro pedagogika davlat instituti o‘quv binolaridan biri, uning qarshisida esa o‘qituvchilar yashashi uchun ikki qavatlari bino va Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi (avvalgi madaniyat kolleji) binosi qurilgan. XX asr boshlarida Shayx Jalol guzarida kichik mozor, XVIII asrga oid masjid-xonakoh va hovuz mavjud bo‘lgan. Ushbu binolarning barchasi, shuningdek, shayx Jalol guzariga qo‘shti Sohibzoda, Mirakon, Xo‘ja Chorshanba guzarlari ham buzib tashlangan.

1960-yillardan mudofaa devorining quyi tarafiga ikki, to‘rt qavatlari yangi turar joylar qurila boshlangach, bu hududga nisbatan “Yangi shahar”, “kichik nohiya” (mikraranay) atamalari ishlatala boshlangan. Sovet davrida olib borilgan qurilish borasidagi “islohotlar” Buxoroning tarixiy eski shahar qismiga ziyon yetkazib, shaharning janubiy-g‘arbiiy qismi butunlay o‘zgacha ko‘rinish olgan.

1976 yil 8-17 mayda O‘zbekistonning tabiiy gaz olinadigan hududida joylashgan Gazli shahrida birin-ketin turkum M-7.3 magnitudali, kuchi 9 balldan oshgan yer silkinishi sodir bo‘lgan [22:45-varaq]. Ketma-ket bo‘lgan tebranishlar kuchi Buxoroda 7 ballga yetgan. Tabiiy ofat shahar infrastrukturasiga zarar yetkazib, ayniqsa “eski” shaharda joylashgan madaniy meros ob‘yektlariga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, Mir Arab madrasasi gumbazlari, peshtoqi, hovli ichidagi peshtoq ham shikastlangan. 1976-1977 yillar davomida katta gumbazlar va ichki hovli peshtoqlari qaytadan ta’mirlangan. 1977 yilda 920.8 ming so‘mlik maxsus ilmiy-restavratsiya ishlari olib borilgan [22:45-varaq]. Shahar uy-joy ob‘yektlarini ta’mirlash va qurishda boshqa qardosh respublikalardan quruvchilar ham jalb qilingan. Zilziladan so‘ng shaharda 10000 aholining yashashi uchun mo‘ljallangan 4 ta kichik nohiya qurilib, foydalanishga topshirilgan. Shuningdek, 4 ta muktab, 4 ta yozgi kinoteatr, 1 ta bolalar poliklinikasi va boshqa binolar bonyod etilgan [22:18-varaq]. Qurib foydalanishga topshirilgan 4 ta kichik nohiyalarda hozirgidek dam olish uchun yashil zonalar, piyodalar uchun yo‘laklar, uylar orasida ichki yoritish moslamalari bo‘lmagan. Shuningdek, uylarning pastki qavatlarida yashovchi aholi o‘z bilarmonlik qilib garaj va turli xil saqlash xonalarini qurib, tomorqalarga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ekkan [22:20-varaq]. Bu esa shahar ko‘rinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

1970-yillarda shaharda 7000 ga yaqin talabasi bo‘lgan S.Orjonikidze nomidagi davlat pedagogika instituti, Toshkent politexnika institutining 2300 talaba ta’lim olayotgan filiali, 8700 o‘quvchisi bo‘lgan 2 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti, har yili 300 dan ortiq turli kasbdagi ishchilar tayyorlab bergen 7 ta hunar-texnika bilim yurti, 3100 dan ziyod o‘quvchi tahsil olgan 33 ta umumiy ta’lim maktablari, 8 ta ishchi yoshlar maktabi va 12000 bola tarbiyalangan 73 ta muktabgacha tarbiya muassasalari mavjud bo‘lgan [23:65-bet].

1980 yillarda shaharda yangi sanoat korxonalari va ijtimoiy ob‘yektlar barpo etilgan. 1980-1990 yillarda to‘qimachilik kombinati, 1987 yilda yangi poyabfzal fabrikasi, ishga tushirildi [8:81-bet]. Radio uyi foydalanishga topshirilgan, 1989 yilda Buxoro Tibbiyot instituti ish faoliyatini boshlagan.

4.Xulosalar:

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shahri 1920-1990 yillarda 70 yillik taraqqiyot va tanazzul davrlarini boshidan kechirdi. Bu yillarda hukumat me’moriy obidalarni asrash va ta’mirlash bilan bir paytda, ularni buzib tashlash ishlarini ham amalga oshirdi. Bu asrlar davomida saqlanib kelayotgan tarixiy inshootlarning nom-nishonsiz yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi.

Shaharda zamonaviy binolar, istirohat bog‘lari, sanoat korxonalari, zavod va fabrikalar, to‘qimachilik kombinatlari qurilgan. Muhandislik, transport, kommunikatsiya va logistika xizmatlari yo‘lga qo‘yildi. Ammo shahar markazidagi sanoat korxonalari, ayniqsa, go‘sht kombinati, yog‘

zavodi, paxta zavodi va shunga o‘xshash shahar ekologiyasiga zarar keltiradigan zavod va fabrikalar shahar qiyofasiga va hayotiga turli ijtimoiy muammolarni kuchayishiga sabab bo‘ldi.

Iqtiboslar/ Сноски/References:

1. Rahmonov K. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixi matbuot sahifalarida. Toshkent: Abu Matbuot-konsalt, 2012. - B. 78.
2. Сообщение газеты «Туркестанская правда» о постройке электрической станции в старой Бухаре. История Бухарской Народной Советской республики (1920-1924). Сборник документов. Ташкент: Фан. 1976. – Б. 379.
3. “Buxoro axbori”, 1921 yil 13 yanvar; “Ozod Buxoro”, 1923 yil 17 noyabr.
4. Baqoyev M. Fayzulla Xo‘jayev jurnalist va publisist. Toshkent: O‘zbekiston, 1996 – B. 25.
5. O‘zbekiston Milliy arxiv, R-61-fond, 1-ro‘yxat, 31-hujjat, 107-varaq.
6. O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. Toshkent: Sharq, 2000. - B. 228.
7. Junayev Z. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida moliya sohasidagi ahvol va banklar faoliyati // O‘tmishga nazar. 2020. Maxsus son. - B. 149-150.
8. Buxoro Sharq durdonasi. - B. 77.
9. Иноятов Х.Ш. Создание основ народно-демократического строя в БНСР. 50-лет Бухарского Народной Советской революции материалы научной сессии. Ташкент: Фан, 1972. – Б. 82.
10. Ashurov Ya.S., Gelax T.F., Kamalov U.X. Buxoro. Qisqacha spravochnik. Toshkent: O‘zbekiston. 1968. - B. 80-81.
11. O‘zbekiston Milliy arxiv, R-2182 fond, 1-ro‘yxat, 1210-yig‘ma jild, 102-varaq.
12. Авалов М. Развитие городского хозяйства Бухары. Ташкент, – С. 358.
13. O‘zbekiston Milliy arxiv. R-2384 fond, 1-ro‘yxat, 90-yig‘ma jild, 129-varaq.
14. Народное хозяйство Бухарской области. Статистический сборник. Бухара. 1967. – С. 405.
15. Buxoro viloyati Davlat arxiv, 1296 fond, 1-ro‘yxat, 15-varaq.
16. Buxoro viloyati davlat arxiv, 1-fond, 1-ro‘yxat, 1276-yig‘ma jild, 27-varaq.
17. Buxoro viloyati davlat arxiv, 37-fond, 4-ro‘yxat, 1097-yig‘majild, 43-varaq.
18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2003 yil 12 dekabrdagi qaroridagi “Buxoro, Navoiy, Namangan, Camarqand va Farg‘ona shaharlarining tuman ma’muriy-hududiy tuzilmalarini tugatish hamda Navoiy viloyatining Navoiy tumani chegaralarini kengaytirish va nomini o‘zgartirish to‘g‘risidagi” Qarori // www/lex.uz.
19. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997. - B. 112.
20. Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи. Ташкент: Изд.лит. и искусства. 1981. - С. 11.
21. To‘rayev H. Buxoro: “Eski shahar”, “Yangi shahar” // Buxoronom, 2018 yil 9 iyun.
22. Buxoro viloyati davlat arxiv, 37-fond, 4-ro‘yxat, 1097-yig‘majild, 45-varaq.
23. Mo‘minov H., Muzaffarov A. Buxoro oblasti. Toshkent: O‘zbekiston, 1976. - B. 65.

ЎТМИШГА НАЗАР

6 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 6, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 6, ISSUE 10

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000